TOSHKENT SHAHRI MIRZO ULUG‘BEK TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 6-noyabr | 349-14-200-Q/25 | Mirzo Ulug‘bek tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2026-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2025 yildagi PF-126-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-sonli Qonunini, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun Mirzo Ulug‘bek tumanida 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF-98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mirzo Ulug‘bek tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Mirzo Ulug‘bek tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Mirzo Ulug‘bek tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 218 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 30 foiz (65 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 6 foiz (12 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 48 foiz (105 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 8 foiz (19 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 3 foiz (7 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 5 foiz (10 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

Mirzo Ulug‘bek tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq:

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Mirzo Ulug‘bek tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Mirzo Ulug‘bek tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Mirzo Ulug‘bek tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand

toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Mirzo Ulug‘bek tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (M.Islamov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 2 va 3-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Tuman hokimligi Matbuot kotibi (M.Parmonov):

ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Gulyamov zimmasiga yuklansin.

Mirzo Ulug‘bek tumani hokimi **B.Gaibnazarov**

Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining
2025-yil 6-noyabrdagi
349-14-200-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanidagi ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

№	F.I.SH		Lavozimi
1	**A.Gulyamov**	**-**	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari ***Komissiya raisi***
Komissiya a’zolari			
2	**I.Rashidov**	**-**	Tuman IIOFM boshqarmasi boshlig‘i
3	**A.Maxsumov**	**-**	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
4	**M.Islamov**		Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
5	**Z.Karabayev**	**-**	Tuman ijtimoiy-moslashtirish markazi rahbari
6	**J.Batashev**	**-**	Tuman Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi boshlig‘i v.b.
7	**A.Ruziev**	**-**	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, komissiya kotibi ***Komissiya kotibi***

Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining
2025-yil 6-noyabrdagi
349-14-200-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan* **ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/p	Tashkilot nomi	Tashkilot-ning STIRI	Shtat jadvali bo'yi-cha xodim-lar-ning umu-miy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironli-gi bo'lgan shaxslar soni		nogironli-gi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlik-dan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestiridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassalari-dan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**13029**	**163**	**94**	**24**	**8**	**36**	**9**	**7**	**10**
1	SANITARIYA, GIGIYENA VA KASB KASALLIKLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI (SGKK ITI)	200540953	137	6	2	1		1			
2	187-UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABI	300435519	96	2	2	1		1			
3	AKADEMIK O.S.SODIQOV NOMIDAGI BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI	200540755	190	3	1			1			
4	RESPUBLIKA OLIMPIYA ZAXIRALARI TENNIS MAKTABI	300875335	48	1	2			1	1		
5	UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO	202621676	172	3	2			2			

	INSTITUTI										
6	MINERAL RESURSLAR INSTITUTI	201363484	330	4	3	2		1			
7	“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi”	305975326	296	6	2	2					
8	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TIBBIYOT BOSH BOSHQARMASINING 2-SONLI MARKAZIY KLINIK SHIFOXONASI	200540709	459	8	2	1		1			
9	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TIBBIYOT BOSH BOSHQARMASINING MAHSUS AVTOTRANSPORT BILAN TA`MINLASH BOSHQARMASI	200541303	172	6	2			1	1		
10	H M ABDULLAEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI	201123473	114	2	2	1		1			
11	AKADEMIK Y.X.TO'RAQULOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ENDOKRINOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI	200541224	696	3	4	2		2			

12	"O`ZBEKGIDROENERG OQURILISH"	201055147	128	4	3	1		2			
13	"QIMMATLI QOG`OZLARNING MARKAZIY DEPOZITARIYSI"	203021987	44		1	1					
14	O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi	201794794	149	2	2			2			
15	27–SON BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI	206496323	60	2	2	1		1			
16	NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI INSTITUTI	200624934	216	4	1	1					
17	MIRZO ULUG’BEK TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI 5-SON OILAVIY POLIKLINIKA	200541034	101	1	4	1		3			
18	O`ZBEKGIDROGEOLOG IYA	305414532	1376	23	2	1		1			
19	14-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI	206477250	**60**		1			1			
20	"333-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	301242513	52	1	0						
21	"O`ZBEKISTON DAVLAT SAN`AT VA MADANIYAT INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	302339722	555	12	2				1		1
22	YANGI O`ZBEKISTON BOG`I OBYEKTLARINI SAQLASH VA EKSPLUATATSIYA QILISH DIREKSIYASI	308910088	215	4	4			2			2

23	" ALOHIDA AHAMIYATGA EGA KO‘CHALARNI OBODONLASHTIRISH VA KO‘KALAMZORLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	311699342	656	7	10		2	2	2	2	2
24	"GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI"	200522950	185	7	2			2			
25	"O`ZOG`IRSANOATLOYIHA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	200523238	215	4	2			2			
26	""KARTOGRAFIYA" DAVLAT ILMIY-ISHLAB CHIQARISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200523364	102	2	2			2			
27	"ELEKTRQISHLOQQURILISH" AKSIYADORLIK JAMIYATI	200523561	756	16	7	2	1	1	1	1	1
28	MIRZO ULUG`BEK TUMAN MARKAZIY KO`PTARMOQLI POLIKLINIKASI	200540938	497	11	6	1	1	1	1	1	1
29	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TIBBIYOT BOSH BOSHQARMASINING 1-SONLI MARKAZIY KLINIK SHIFOXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200541761	424	4	6	1	1	1	1	1	1
30	"TOSHKENT SHAHAR TIBBIY REABILITATSIYA KLINIK SHIFOXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200541778	185	4	3		1			1	1
31	"O`ZBEKGEOFIZIKA " AKSIYADORLIK JAMIYATI	201577724	3285	57	5	4	1				

32	O`Z.R.MUDOFAA VAZIRLIGI MARKAZIY HARBIY KLINIK GOSPITALI	202269188	1058	25	5		1	1	1	1	1

Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining
2025-yil 6-noyabrdagi
349-14-200-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurutuvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/p	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRI	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yiladi-gan ish o'rinlari soni	shu jumladan			
				nogironligi bo'lgan shaxslar soni		nogironli-gi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlik-dan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestiridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar
JAMI:			**16 686**	**214**	**124**	**41**	**4**	**69**	**10**
1	Kafil -Sug‘urta kompaniyasi	205091876	140	3	2			1	1
2	“ANGREN BUNYOD FAYZ”	302741255	250	5	12	2		10	
3	“UNICON.UZ-FAN-TEXNIKA VA MARKETING TADQIQOTLARI MARKAZI” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	200898586	330	9	3			2	1
4	“OTEL O‘ZBEKISTON” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO‘SHMA KORXONA	200524845	205	5	2	1		1	

5	“UZKABEL” AKSIYADORLIK JAMIYATI	200542182	1505	10	2			2	
6	“KAPITAL SUG‘URTA” AKSIYADORLIK JAMIYATI	200638670	187	2	2			2	
7	AKSIYADORLIK TIJORAT ALOQABANK	200829053	1875	40	2	1		1	
8	“SHEBA PROPERTIES” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	201758671	128	1	4	1	1	1	1
9	“ALSKOM SUG‘URTA KOMPANIYASI” AKSIYADORLIK JAMIYATI	201941144	222	3	1	1			
10	"VORIS KELAJAK" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	202714433	127	2	2			2	
11	"NOBEL PHARMSANOAT" MAS`ULIYATI CHJ XORIJIY KORXONA	203340511	478	2	3	1		2	
12	"KAFIL-SUG`URTA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	205091876	140	3	6	1		5	
13	"NKT TRANS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	206461439	114	3	1	1			
14	"NIKA PHARM" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	206698808	308	4	3	1		2	
15	"ORIENT FINANS BANK" AKSIYADORLIK	207086151	824	8	2	2			

	JAMIYATI								
16	"XALQ SUG`URTA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	207119228	120	2	2			2	
17	"MUREL YATIRIM INSAAT ANONIM SIRKETI" DOIMIY MUASSASASI	207360444	205	1	2			2	
18	"YO`L-LOYIHA BYUROSI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	300112785	141	2	2	1		1	
19	"DE LI SIN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	300470698	168	1	2	1		1	
20	"KRANTAS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	300848161	139	3	1	1			
21	"LAMA STANDART" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	302168650	105	28	2	2			
22	"UNIVERSAL POWER" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	303345328	231	9	4	4			
23	"CRAFERS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	304755845	716	4	4	4			
24	"KO`PFUNKSIYALI TIBBIYOT MARKAZI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	304975739	516	7	10	5		5	
25	"UNICON-SOFT" MAS'ULIYATI	305109680	654	6	4	4			

	CHEKLANGAN JAMIYAT								
26	"ZIYRAAT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	305289664	166	4	2			1	1
27	"OXBRIDGE INTERNATIONAL SCHOOL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	305466674	235	1	3	1		2	
28	"MR CONSTRUCTION AND ENGINEERING GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	305571774	721	4	5	1		2	2
29	"APEX INSURANCE" AKSIYADORLIK JAMIYATI	305684696	560	5	2			2	
30	"""SQB INSURANCE" SUG`URTA KOMPANIYASI"" AKSIYADORLIK JAMIYATI	305880294	132	3	1		1		
31	"CENTRAL ASIAN UNIVERSITY" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	306210969	402	3	3			2	1
32	"WESTMINSTER INTERNATIONAL SCHOOL IN TASHKENT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	306224095	202	1	1				1
33	"XALQ RETAIL" MAS'ULIYATI	306955509	1866	22	8	4		4	

	CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA								
34	"MY FREIGHTER" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	306985993	1168	7	4	1	1	1	1
35	"ITF TECH" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	309696038	164	2	2		1	1	
36	"DYNINNO TAS INTERNATIONAL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	309701703	176	1	2			1	1
37	"UZGASTRADE" AKSIYADORLIK JAMIYATI	309702449	123	2	1			1	
38	"TEZCOIN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT MIKROMOLIYA TASHKILOTI	309763555	225	3	2			2	
39	"ALEXANDER BRANDS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	310107872	338	3	4			4	
40	"TELECOM SOFT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	310778664	380	2	4			4	